

THERE IS / THERE ARE KONSTRUKSIYASI THE CONSTRUCTION THERE IS / THERE ARE

There is (There are) bilan boshlanuvchi gaplar biror joyda biror kimsa (kimsalar) yoki narsa(lar)ning borligini ifodalayadi. Mazkur konstruksiyali gaplardagi soʻzlar tartibi quyidagicha boʻladi:

| | | |
|---------------------|-------------|-------------------|
| <i>there is/are</i> | <i>ega</i> | <i>oʻrin holi</i> |
| There is | a newspaper | on the table. |
| There are | newspapers | |

Bunday gaplar oʻzbek tiliga oʻrin holidan boshlab tarjima qilinadi.

Stol ustida gazeta(lar) bor.

Eslatma: Gapda bir nechta ega kelgan boʻlsa, kesim (to be) odatda, oʻzidan keyin turgan ega bilan sonda moslashadi.

There **is a table** and five chairs in the room. Xonada stol va beshta stul bor.

Tasdiq, inkor va soʻroq gaplarning yasalishi:

Birlik

| | |
|-----------------------|---|
| <i>Tasdiq gap</i> | There is a book on the table. Stol ustida kitob bor. There's a good film on TV today. Bugun televizorda yaxshi film bor. |
| <i>Inkor gap</i> | There is not any book on the table. Stol ustida hech qanday kitob yoʻq. There isn't any good film on TV today. Bugun televizorda hech qanday yaxshi film yoʻq. There is no good film on TV today. Bugun televizorda yaxshi film yoʻq. |

| | |
|-------------------|--|
| <i>Soʻroq gap</i> | Is there any book on the table? Stol ustida birorta kitob bormi? |
| | Is there any good film on TV today? Bugun televizorda biror yaxshi film bormi? |

Koʻplik

| | |
|-------------------|--|
| <i>Tasdiq gap</i> | There are some / a few / many chairs in this room. Xonada bir nechta (ozgina/koʻ) stullar bor. |
| <i>Inkor gap</i> | There are not any chairs in this room. Xonada hech qancha stullar yoʻq. There're no factories in our district. Bizning tumanida fabrikalar yoʻq. There are no good films on TV today. Bugun televizorda yaxshi filmlar yoʻq. |
| <i>Soʻroq gap</i> | Are there any books on the table? Stol ustida qanchadir kitoblar bormi? Are there any factories in your district? Sizning tumaningizda qandaydir fabrikalar bormi? |

Sanalmaydigan otlar bilan:

| | | |
|----------|-----------------|---------------------------|
| | some | bread at home. |
| | little | sugar in the cup. |
| There is | a little | butter on the plate. |
| | no | money in my bag. |
| | a lot of | oil in our country. |
| | much | work at our office today. |

There is / There are dan keyin sanaladigan ot birlikda kelsa, u noaniq artikl bilan ishlatiladi. Koʻplikdagi sanaladigan otlar va sanalmaydigan otlar bilan esa, **some, any, no** olmoshlari ishlatiladi.

There is a telephone in that room.
Oʻsha xonada telefon bor.
There are some students in the library.
Kutubxonada bir nechta talabalar bor.
There aren't any children in the park.
Istirohat bogʻida bolalar yoʻq.

Oʻtgan zamonda **is** oʻrniga **was, are** oʻrnida **were** qoʻllanadi.

There was ... / There was not (wasn't) ... / Was there ... ?

There were ... / There were not (weren't) ... / Were there ... ?

Kelasi zamonda **is** va **are** o'rniga **will be** ishlatiladi.

There will be ... / There will not (won't) be ... / Will there be ... ?